



ADABIY TANQID VA CHO'LPON IJODI

Oqilaxon Ahmadjonova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Saodatxon Bahodirova

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Cho'lpon ijodiga bo'lgan tanqidchilik munosabatlari tahlilga olingan. Shuningdek, adibning xos uslubi, mavzu doirasi, badiiy ifoda va makon-zamon xususiyatlari nuqtai nazaridan kuzatilib, uning ijodiga zamondosh va undan keyingi davr tanqidchilari munosabati qiyosan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy tanqid, munaqqid, uslub, makon va zamon masalasi, adabiyot, nasr, nazm, publitsistika, dramaturgiya, tarjima, Cho'lpon, Ozod Sharafiddinov, Ayn, Oybek, Naim Karimov, Bahodir Karim.

Abstract: This article analyzes the critical attitude towards the work of one of the outstanding representatives of Uzbek literature, Chulpon. Also, the writer's unique style, subject matter, artistic expression, and space-time characteristics are observed, and the attitude of contemporary and later critics to his work is comparatively studied.

Keywords: Literary criticism, critic, style, issue of space and time, literature, prose, poetry, journalism, dramaturgy, translation, Chulpon, Ozod Sharafiddinov, Ayn, Oybek, Naim Karimov, Bahodir Karim.

Аннотация: В данной статье анализируется критическое отношение к творчеству одного из выдающихся представителей узбекской литературы, Чулпона. Также рассматриваются уникальный стиль писателя, тематика, художественное выражение и пространственно-временные характеристики, а также проводится сравнительное исследование отношения к его творчеству современных и более поздних критиков.



Ключевые слова: Литературная критика, критик, стиль, проблема пространства и времени, литература, проза, поэзия, журналистика, драматургия, перевод, Чулпон, Озод Шарафиддинов, Айн, Ойбек, Наим Каримов, Баходир Карим.

Chin iste'dod sohibi bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon ham adabiyotning deyarli barcha soha va janrlarida birday qalam tebratgan. Uning adabiy merosi ko'lami doirasida nasr, nazm, dramaturgiya, tarjima, publitsistika, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohalariga oid ko'plab qimmatli asarlari ham mavjud. Ammo Cho'lponning tarjimai holidan ma'lumki, istibdod zamonida u va uning asarlari jamiyatgina emas, balki davr adabiyotshunoslari uchun ham mavhumot sifatida qoldi. Keyingi yillarda esa bir qancha tanqidchi va adabiyotshunoslar, Sh. Turdiyev, N. Karimov, B. Do'stqorayev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Quronov, U. Sultonovlar tomonidan olib borgan harakatlar oqibatida munaqqidning turli gazeta va jurnallarda qolib ketgan adabiy tanqidiy maqolalari, teran fikrlari muomalaga kira boshladi.

Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini tuzib, bibliografiyasini e'lon qilgan N. Yoldoshev ko'rsatishicha, shoir 1914-1937-yillar mobaynida chop etgan adabiy-tanqidiy maqolalar soni 70 ga yaqindir. Bu raqamlar va undagi qimmatli fikrlar esa Cho'lponning munaqqid sifatida ham o'rganilishining yaqqol isbotidir. Uning birgina "Adabiyot nadir?" maqolasining o'zi ham naqadar iste'dodli adabiyotshunos ekanligini ko'rsatadi. Cho'lpon bu maqolasi chop etilgan paytda ancha yosh bo'lsa-da, uning fikrlari orqali "Adabiyot o'zi nima?" degan muhokamali savollarga javob topildi. Bugungi kunda esa yangi o'zbek adabiyotini Cho'lpon ilmiy va badiiy asarlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

XX asrning 20-30-yillarida ayni Cho'lpon ijodiga turli tanqidchilarning qarashlari ham turlicha bo'ldi. Xususan, Oybekning "Cho'lpon yo'qsul xalqning inqilobchi shoiri" mazmunidagi maqolasiga qarshi munaqqid, Ayn "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1927- yil 14-fevral sonida unga javoban "O'zbek

shoirilari. Cho'lpon" nomli tanqidiy maqolasini e'lon qiladi. Uning mazmuni esa "Cho'lpon yoqsil xalq shoiri emas, u millatchi ziyolilarning shoiri. Cho'lpon –



badbin, Cho‘lpon – xayolparast” degan g‘oyalar bilan sug‘orilgan. Keyinroq bu fikrlarga ko‘nishni istamagan Oybek ham Aynga javoban “Cho‘lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak?” maqolasini chop ettirib, unda munaqqidning qarashlarini asossiz va masalaga yuzaki yondashishda, fikriy no‘noqlikda ayblab, o‘zining fikrlarini dalillab keltirib o‘tadi.

Shuningdek, Cho‘lpon ijodi va jonkuyar targ‘ibotchisi sifatida kuchli munaqqid Ozod Sharafiddinov davr zug‘umiga qaramasdan, Cho‘lpon ham uning ijodi haqida o‘zining goh oshkor, goh pinhon fikrlarini aytishdan tonmadi. Bu yo‘nalishda u matbutotda fikrlarini ochiq aytish imkoniyatiga ega bo‘lmadi, lekin talabalarga o‘qigan ma‘ruzalarida fikrini ochiq aytishdan o‘zini tiyolmadi. Buning uchun rasmiy doiralardan ko‘p bor dakki ham eshitdi. Shunday bo‘lsa-da, u Cho‘lponni yuzaga chiqarish yo‘lidagi mardona kurashini davom ettirib, 1967-yilda “Tirik satrlar” degan kitobni nashr ettirishda moharrir sifatida qatnashib, unda shoir hayoti va ijodiga oid maqola hamda eng yaxshi she‘rlaridan namunalar e‘lom qiladi. Ushbu to‘plam sotuvga chiqqanida esa kitob rastalaridan yana qayta yig‘ib olindi. O‘sha davrda Cho‘lpon fuqaro sifatida oqlangan bo‘lsa-da, uni tanitish va o‘rganishga qarshi bo‘lgan rahbariyat uni butkul qatag‘onga uchratish yo‘lini izlaganlar.

O.Sharafiddinovning «Cho‘lpon» nomli (1991) asari ulug‘ san‘atkor haqidagi birinchi, xayrixohlik bilan yozilgan ilmiy-tahliliy, ayni vaqtda ommaviy tadqiqot asar edi. Kitob lo‘nda-lo‘nda besh bobdan - hayoti va ijod yo‘li, she‘riyati tahlili, nasrining talqini, adabiy-tanqidiy faoliyatiga munosabat, tajjimonlik mahoratiga bir nazardan iborat. Kitobning birinchi bobi asosida keyinroq tanqidchi «Cho‘lponni anglash» nomli teran va mazmunli asar yaratdi. Mana shu asarlar orqali keying davr o‘quvchilari va adabiyotshunoslari Cho‘lponni qancha o‘qisa, anglasa, inson erki, ruhning ozodligini shuncha aniq his qiladi, aksincha, sho‘ro hukumati mohiyatini uqishga qancha intilsa, erksizlik, tutqunlik qonun-qoidalarini aniq-ravshan idrok etadi. Demak, Cho‘lpon ijodining mohiyati sho‘ro tuzumi asoslariga zid edi. Insonning erkin ruhini tasvirlovchi asarga totalitar tuzumda o‘rin bo‘lishi qiyin.



Cho'lponga intilish, hatto, aytish mumkinki, O.Sharafiddinovning shaxs sifatida kamol topishiga ta'sir ko'rsatdi, iste'dodini tarbiyaladi. Aniq maqsadga yo'naltirdi. Uning "She'r ko'p, shoir-chi?", "Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi", "Haqiqatga sadoqat" maqolalari Cho'lpon ruhida yozilgan. Bundan ko'rinadiki, Cho'lpon o'zining asarlari bilan yaxlit buyuk bir Cho'lpon maktabiga asos soldi va hali hamon u o'z o'quvchilarini yetishtirib kelmoqda.

Mustaqillikdan keyin ham Cho'lpon ijodi va shaxsiyati borasida ko'plab adabiy- tanqidiy maqolalar yozildi. Munaqqidlar tomonidan ochiq xatlar e'lon qilindi. Bu davrda ham cho'lponshunoslikning mavhum va ba'zi tumanli nuqtalari birdan yo'qolmadi. Xususan, Bahodir Karim va Naim Karimovlarning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009-yil 15-sonidan joy olgan ochiq xatlarida aynan fikrimizni dalillay oladigan qarashlar keltirilgan. Bu manbada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Naim Karimov maqolasida Cho'lpon qalamiga mansub bo'lgan ayrim she'rlarni xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida qarash va ayollar nolasi aks etgan namunalarni ham erkak zoti yozganiga shubha bilan qaralgan o'rinlar mavjud. Bunga javoban Bahodir Karim o'zining mulohazalarini Cho'lpon lirikasining uslubi nuqtai nazaridan tahlilga olib chiqqan edi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi mustaqillikka erishgandan keyin Cho'lponning barcha asarlari nashr etila boshlandi. She'riyatimizda Cho'lpon yoqqan chiroq qaytadan porlab, uning asarlari xalqning ma'naviy mulkiga aylandi. Shoir bir she'rida:

Tilingan tillarga qon yugurgusi,
Bo'shalgan inlarga jonlar kirgusi
Tikanli bog'chalar chechak ko'rgusi,
Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi
Jandalar jonimga tekkan kunlarda!..

Deb yozgan edi. Shoirning "Ko'ngil" she'ri o'z davrida o'zbek yoshlarining sevikli asariga aylangan edi.

Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam,



sen-da insonsen

Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki, sen ham

hur tug'ilg'onsen!..

El mustaqillikka erishgach, Cho'lponning asralari xalqiga qaytib keldi. Yuqorida biz parcha keltirgan "Ko'ngil" she'ri qanchadan qancha shoirlarga ilhom bag'ishladi. Shunday ekan, bugun adabiyotimizning har bir sohasini Cho'lpon ovozisiz tinglab bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2001.
2. Cho'lpon. She'rlar va maqolalar. Toshkent: Sharq, 1999.
3. A. Rasulov va b. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
4. B.Rahmonov. O'zbek adabiy tanqidchiligi Toshkent: Istiqlol nuri nashriyoti, 2015.
5. O. Sharafiddinov. Istiqlol fidoyilari. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1993.
6. Qizil O'zbekiston gazetasi. 1997.
7. O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi. 15-son, 2009.
8. Jahon adabiyoti jurnali. 10-son, 2010.